

INNOVATSION YONDASHUV VA UNING INNOVATSION FAOLIYATDAGI AHAMIYATI

Hamraqulov Yorqin Murtazaqulovich

Guliston davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotasiya: Mazkur maqolada talabalarning innovatsion yondashuv va uning innovatsion faoliyat haqida so'z borib, ularni amaliyotga tadbiq etish to'g'risida fikr-mulohazalar bildirilgan.

Kalit so'zlar: muloqot, innovatsionlik, innovatsion faoliyat, pedagogik jarayon, innovatsiya, innovatsion faoliyat, rivojlanish, o'z-o'zini faollashtirish.

INNOVATIVE APPROACH AND ITS SIGNIFICANCE IN INNOVATION ACTIVITIES

Abstract: This article discusses students' innovative approach and their innovative activities, providing insights on their practical application.

Keywords: communication, innovation, innovative activity, pedagogical process, innovation, innovative activity, development, self-activation.

Bugungi kunda talabalarning innovatsion faoliyatini samarali amalga oshirish bir qator omillarga tayanadi. Unda talabalarning muloqatchanligi, qarshi fikrlarga nisbatan xolisona munosabatga tayyorligi inobatga olinadi. Natijasida talabalar o'z faoliyati ilmiy ta'minlaydigan keng qamrovli mavzu (motiv)ga ega bo'ladi. Talabalar faoliyatida o'z-o'zini faollashtirish, o'z ijodkorligi, o'z-o'zini bilishi va yaratuvchiligi kabi mavzu (motiv)lar muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa talabalar shaxsining kreativligini shakllantirish imkoniyatini beradi. Yangilik kiritishning muhim sharti muloqotning yangi vaziyatini tug'dirishdir. Muloqotning yangi vaziyati - bu talabalarning o'z mustaqillik mavqeini, dunyoga, pedagogik fanga, o'ziga bo'lgan yangi munosabatni yarata olish qobiliyatidir. Talabalar o'z nuqtai nazarlariga o'ralashib qolmaydi, u pedagogik tajribalarning boy shakllari orqali ochilib, mukammallashib boradi. Bunday vaziyatlarda talabalarning fikrlash usullari, aqliy madaniyati o'zgarib boradi, hissiy tuyg'ulari rivojlanadi. Keyingi sharti - bu talabalarning madaniyat va muloqotga tayyorligi.

Talabalarning innovatsion faoliyati voqelikni o'zgartirishga, uning muammolari va usularini echishni aniqlashga qaratilgandir. Talabalar va talaba o'rtasidagi muloqot namunasining o'zgarishi, innovatsion faoliyat shartlaridan biridir. Yangi munosabatlar, an'analarda bo'lganidek, qistovlar, hukmga bo'ysunish kabi unsurlardan holi bo'lishi lozim. Ular tenglarning hamkorligi, o'zaro boshqarilishi, o'zaro yordam

shaklida qurilgan bo'lishi darkor. Ular munosabatlaridagi eng muhim xususiyat bu talabalar va talabaning ijoddagi hamkorligidir.

Innovatsion faoliyat quyidagi asosiy funksiyalar bilan izohlanadi:

- ❖ kasbiy faoliyatning ongli tahlili;
- ❖ me yorlarga nisbatan tanqidiy yondashuv;
- ❖ kasbiy yangiliklarga nisbatan shaylik;
- ❖ dunyoga ijodiy yaratuvchilik munosabatida bo'lish;
- ❖ (o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish, o'z turmush tarzi va intilishlarini kasbiy faoliyatda mujassam qilish).

Demak, talabalar yangi pedagogik texnologiyalar, nazariyalar, konseptsialarning muallifi, ishlab chiqaruvchisi, tadqiqotchisi, foydalanuvchisi va targ'ibotchisi sifatida namoyon bo'ladi. Hozirgi jamiyat, madaniyat va ta'lim taraqqiyoti sharoitida talabalar innovatsiya faoliyatiga bo'lgan zaruriyat quyidagilar bilan o'lchanadi:

- ijtimoiy-iqtisodiy yangilanish ta'lim tizimi, metodologiya va o'quv jarayoni texnologiyasining tubdan yangilashni talab qiladi;
- bunday sharoitda talabalarning innovatsiya faoliyati pedagogik yangiliklarni yaratish, o'zlashtirish va foydalanishdan iborat bo'ladi;
- mazmunini insonparvarlashtirish, doimo o'qitishning yangi tashkiliy shakllarini, texnologiyalarini qidirishni taqozo qiladi;
- pedagogik yangilikni o'zlashtirish va uni tatbiq etishga nisbatan talabalarning munosabati xarakteri o'zgarishi.

Talabalarning innovatsion faoliyati tahlili yangilik kiritishning samaradorligini belgilovchi muayyan me'yorlardan foydalanishni talab qiladi. Bunday me'yorlarga - yangilik, maqbullik (optimalnost), yuqori natijalilik, ommaviy tajribalarda innovatsiyani ijodiy qo'llash imkoniyatlari kiradi. Yangilik pedagogik yangilik me'yori sifatida o'zida taklif qilinadigan yangini, yangilik darajasi mohiyatini aks ettiradi. Pedagog olimlar yangilikning qo'llanish mashhurligi darajasi va sohasiga ko'ra farqlanadigan mutlaq, chegaralangan mutlaq, shartli, subektiv darajalarini farqlaydilar. Maqbullik me'yori talabalar va talabaning natijaga erishish uchun sarflangan kuch va vositalarini bildiradi. Natijalilik talabalar faoliyatidagi muayyan muhim ijobiy natijalarni bildiradi. Pedagogik yangilik o'z mohiyatiga ko'ra ommaviy tajribalar mulki bo'lib qolishi lozim. Pedagogika yangilikni dastlab ayrim talabalarlarning faoliyatiga olib kiradi. Keyingi bosqichda - sinalgandan va obektiv baho olgandan so'ng pedagogik yangilik ommaviy tatbiq etishga tavsiya etiladi.

V.A.Slastenin o'tkazgan tadqiqotlar talabalarning innovatsion faoliyatga kasbiy tayyorgarligini aniqlash imkoniyatlarini beradi. Ular quyidagi tavsiflardan iborat:

- mo'ljallangan yangilikni yalpi va uning alohida bosqichlari muvaffaqiyatini bashorat qilish;

➤ kelgusida qayta ishlash maqsadida yangilikning o'zidagi va uni tatbiq qilishdagi kamchiliklarni aniqlash;

➤ yangilikni boshqa innovatsiyalar bilan qiyoslash, ulardan samaradorlarini tanlab olish, ularning eng ahamiyatli va pishqlik darajasini aniqlash;

➤ yangilikni tatbiq etishning muvaffaqiyatlilik darajasini tekshirish;

➤ yangilikni tatbiq etadigan tashkilotning innovatsiya qobiliyatiga baho berish.

Talabalarning innovatsion faoliyati o'z ichiga yangilikni tahlil qilish va unga baho berish, kelgusidagi harakatlarning maqsadi va kontseptsiyasini shakllantirish, ushbu rejani amalga oshirish va tahrir qilish, samaradorlikka baho berish kabilarni qamrab oladi.

Innovatsion faoliyatning samaradorligi pedagog shaxsiyati bilan belgilanadi. Innovatsion faoliyat tadqiqotlari talabalarning innovatsion faoliyatga hozirligi me'yorlarini belgilashga imkon berdi:

➤ innovatsion faoliyatga bo'lgan zaruriyatni anglash;

➤ ijodiy faoliyatga jalb qilinishiga shaylik;

➤ shaxsiy maqsadlarni innovatsion faoliyat bilan moslashtirish;

➤ ijodiy muvaffaqiyatsizliklarni engishga shaylik;

➤ innovatsion faoliyatni ijro etish uchun texnologik shaylik darajasi;

➤ innovatsion faoliyatning kasbiy mustaqillikka ta'siri;

➤ kasbiy refleksiya bo'lgan qobiliyat.

Ta'lim tizimidagi innovatsiya jarayonlari xarakteri kiritilgan yangiliklar xususiyatlari, talabalarlarning kasbiy imkoniyatlari, yangilik kiritish tashabbuskorlari va ishtirokchilarining innovatsion faoliyatlari xususiyatlari bilan belgilanadi.

Innovatsion faoliyatda eng muhim masalalardan biri talabalar shaxsidir. Talabalar-novator sarmahsul ijodiy shaxs bo'lishi, kreativlikni, keng qamrovli qiziqish va mashg'ullikni, sevuvchi ichki dunyosi boy, pedagogik yangiliklarga o'ch bo'lishi lozim. Talabalarni innovatsion faoliyatga tayyorlash ikki yo'nalishda amalga oshirilishi lozim:

- yangilikni idrok qilishga innovatsion shaylikni shakllantirish;

- yangicha harakat qila olishga o'rgatish.

Innovatsion faoliyatni tashkil etishda talabalarning o'quv-bilish faoliyati va uni boshqarish alohida ahamiyatga ega.

Innovatsiya jarayonlari, ularning funksiyalari, rivojlanish qonuniyatlari, mexanizmlari va uni amalga oshirish texnologiyalari, boshqarish tamoyillarining pedagogik asoslarini o'rganish oliy maktab o'quv jarayonini zamonaviy pedagogika hamda psixologiya fanlari yutuqlari asosida jahon standartlari darajasida tashkil etish imkonini beradi. XXI asr insonlar orasidagi buyuk munosabatlar rivojlangan, ya'ni o'zlarining jismoniy va ma'naviy kuchlarini ifodalovchi insoniylik qarashlari

rivojlangan asrdir. Insonparvarlik, tafakkurning o`rnatilishi talabalar va o`quvchi orasidagi yangi turdagi o`zaro munosabatlarning paydo bo`lishiga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni -T.: "O'zbekiston", 2020 yil 23 sentabr.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish O'zbekiston Yoshlar Ittifoqi faoliyatini qo'llabquvvatlash to'g'risida"gi 2017 yil 5 iyuldagi PF-5106 son Farmoni
3. O'zbekiston prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2021 yil 19 yanvar kuni ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirishga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishidagi nuqti (<https://www.gazeta.uz>)
4. «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти Т.: 975-bet.
4. Ортиков О. Р. Махалла как социально-культурный очаг народа //Научное пространство: актуальные вопросы, достижения и инновации. – 2020. – С. 20-23.
5. Курбанович, М. К. (2020). Инновационная деятельность какобязательный компонент личной педагогической системы преподавателя. Сўз санъати, (3), 219-225.